

O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mansurova Ferangiz Odil qizi

“Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishi talabasi

Adizov Baxtiyor Raxmonovich

Ilmiy rahbar. Pedagogika fanlari doktori, professor

Ushbu maqolada muallif tomonidan bugungi kunda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishda bir qancha usullar va ular orqali amalga oshirilishi va o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik - psixologik xususiyatlari borasida fikr yuritilgan

Kalit so‘zlar: qobiliyat, salohiyat, daholik, iqtidor, ijodiy qobiliyat, ijodkorlik, ijodiy faoliyat, pedagogik xususiyat, psixologik xususiyat, ta’lim yondoshuvlar.

Kirish. Bugungi kunda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, axbarotni mustaqil izlash, topish, tahlil qilish, muammolarni hal qilish va aniqlash, ijodiy yechimlarni ishlab chiqish va yechimlarni amaliyotga tatbiq etish, kerakli vaqtda kerakli bilimlarni mustaqil olish va malakalarni rivojlantirish zamonaviy ta’limning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ijodiy jarayon o‘quvchidan bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba va iste’dod bilan birga, shijoat, chidam, aniqlikni talab qiladi. O‘quvchilarning kuchli bilim olishi, ruhiy va jismoniy jihatdan yetuk shaxslar bo‘lib, ulg‘ayishini ta’minlash ularning qobiliyat va iqtidorini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, ular qalbi ongi va shuurida vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini rivojlantirish ziyolilar oldiga katta mas’uliyat yuklaydi. Ajdodlari buyuk yurtning avlodlari ham buyuk bo‘lishi kerak.

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish- pedagogik muammo sifatida ekanligini tahlil qilar ekanmiz, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy- axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlovchi, yuksak malaka tajribasiga ega kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28- yanvardagi PF-60-son Farmoni asosida “2022- 2030- yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinganligi ayni mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilganligini e’tirof etish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi muammolar bugungi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi. Shuning uchun, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi aks ettirilgan.

S.Leytes qobiliyatni maqsadli rivojlantirish masalalarini tadqiq qilgan yetakchi psixologlardan biri hisoblanadi. U asarlarida bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish bo'yicha muhim ilmiy asoslarni yaratgan. Leytesning fikricha qobiliyatni maqsadli rivojlantirish masalalarining tadqiqotlari bir necha muhim jihatlarni o'z ichiga oladi: Individual yondashuv, ya'ni har bir bolaning o'ziga xos individual qobiliyatlari borligi va pedagogik jarayonlarni individual ehtiyoj va imkoniyatlarga moslashtirish orqali qobiliyatlarni samarali rivojlantirish mumkinligini aytgan. Metodologik yondashuv, ya'ni psixologik testlar, kuzatish, suhbat va boshqa diagnostika usullaridan foydalanish orqali bolalarning qobiliyatlarini baholash va rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar bergan. Ijtimoiy va madaniy yondashuv ya'ni qobiliyatlarni rivojlantirish faqatgina individual jarayon bo'lmasdan, ijtimoiy va madaniy omillar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lib, oilaviy muhit, ta'lim tizimi, jamiyatdagi qadryatlar va an'analar qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Leytesning tadqiqotlari bugungi kunda ham qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik va psixologik amaliyotlar uchun muhim nazriy asos bo'lib, xizmat qiladi.

Karne ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning tadqiqotlari quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Ijodiy qobiliyatlarni kognitiv jarayonlar bilan bog'lab, ularni insonning yangi va asl g'oyalarni yaratish sifatida ta'riflagan.

- Ijodiy qobiliyatlarni baholash uchun turli test va metodlarni ishlab chiqib, bu testlar odatda divergent fikrlash (bir muammo uchun ko'plab yechimlarni topish qobiliyati) va konvergent fikrlash (bitta eng yaxshi yechimni topish qobiliyati)ni o'lchaydi. Bu yo'nalish ijodiy qobiliyatlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

- Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ochiq va qo'llab-quvvatlovchi muhitlar muhimdir. Masalan, bolalar va kattalarda ijodiy fikrlash imkoniyati bo'lib, xatolaridan qo'rqmasdan tajriba o'tkazishlari mumkin bo'lgan muhitda ko'proq ijodkor bo'lishadi.

- Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ta'lim muhim bo'lib, ijodkorlikni rag'batlantirish uchun ta'lim tizimida o'quvchilarga ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlarini yaratish kerakdir. Jumladan ijodiy, yozuv, san'at, imiy izlanish va guruhliy loyihalar orqali amalga oshiriladi.

Biz pedagog, psixologlar va tadqiqotchilar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali metod, usul va dasturlarni ishlab chiqishda davom etyapmiz.

Mazkur ilmiy maqolada, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari o'rganildi. Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga oid adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar pedagog, sotsiolog, psixolog olimlarning ushbu mavzuda olib borgan izlanishlari, olimlar va shu soha vakillarining yozma va og'zaki fikr- mulohazalarini tahlil qilish jarayonlarini kuzatish amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda qobiliyatli bolalarni topish va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor berib kelinayotgan bo'lib, ana shu maqsadda tashkil etilgan ta'lim muassasalari faoliyatlari nuqtai nazaridan bir qancha yo'nalishlarda faoliyat olib bormoqdalar: musiqa; sport; raqs; tasviriy; san'at; xalq amaliy san'ati; texnik ijodkorlik; fan hamda badiiy tafakkur.

Qobiliyat (muayyan yo'nalish bo'yicha faoliyatni samarali tashkil eta olish layoqati) - shaxsning ma'lum bir faoliyatida erishgan muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan bir faoliyatga o'ta olishni ta'minlaydigan individual psixologik xususiyatki, u insonlarning turlicha faoliyatdagi natijalari, yutuqlari va qiyinchiliklari sabablarini tushuntirib beradi.

Iqtidor - insonning o'z xatti-harakatlari, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga muayyan faoliyatni bajarishga nisbatan ijobiy subyektiv munosabati. Iqtidorli insonlar odatda muayyan jarayonda

boshqalarga nisbatan tezroq va samaraliroq o'rganishadi hamda yuqori natijalarga erishadi. Iqtidor tuli xil sohalarda namoyon bo'ladi. Masalan sa'at, ilm-fan, sport, musiqiy ijrochilik, adabiyot, texnologiya va boshqa sohalardir.

Ijodkorlik- yangilik uchun kurashish, fan-texnologiyaning eng so'nggi yutuqlarini tahlil qila bilish va undan o'zining faoliyatida oqilona foydalanishga erishish, doimo o'z ustida ishlash¹²

Ijodiy faoliyat- muayyan sohada ish-faoliyat bilan shug'illanuvchi insonning aniq bir maqsadga intiluvchanligi, maxsus hissiy holati - ilhomlanishi, shuningdek, ruhiy kechinmasi, muammoni jon jahdi bilan hal etish istaklarini mujassamlashtirgan faoliyat turi³

Ijodiy qobiliyatlar - yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muommoni ifodalay olish, g'oya farazini nazariy va amaliy jihatdan tasdiqlash, muommoni hal qilish yo'llarini izlash hamda topish, natijada yangi orginal mahsulotlar yaratish (ilmiy kashfiyot, ixtiro, san'at asari, tavsifnoma va h.k) qobiliyatlari⁴

Iste'dod - shaxsning ma'lum faoliyatni yuqori darajada bajarish uchun tabiiy yoki ortirilgan qobiliyatdir. U tinimsiz mehnat, o'z qobiliyatlarini takomillashtirib borish yo'lida barcha qiyinchiliklarni yengish va irodasi, butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida shakllanadi. Iste'dod ko'pincha tug'ma layoqatlar natijasidir

Salohiyat - muayyan faoliyatni ichki kuch yordamida qisqa vaqt ichida, kam harakat sarflash hisobiga muvaffaqiyatli bajara olish xususiyatidir. Ba'zi manbalarda, shuningdek, "salohiyat" so'zi kishi yoki jamiyatning ichki imkoniyatlari, hali to'la namoyon bo'lmagan kuch-quvvati ma'nosida ham ishlatilishiga urg'u berilgan.

Daholik - favqulodda aql-idrok, aqliy kuch-quvvat, zehn-zakovatning har tomondan eng yuqori darajada rivojlanganligi bo'lib, daholik xislatiga ega shaxslar kashfiyotlar yaratish, ilmiy taraflama mukammal, har jihatdan asoslangan g'oya va qarashlarni ilgari surish, shuningdek, qonuniyatlar mohiyatini ochish hamda nazariyalarni asoslashdek aqliy kuch-quvvatlarini namoyon eta oladilar.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni asosiy xususiyatlaridan ba'zilari:

PEDAGOGIK XUSUSIYATLAR	
Ijodkorlikni rag'batlantiradigan o'quv muhiti	O'quvchilar o'z fikrlarini baham ko'rib, savollar berish, mulohazalardan yoki muvaffaqiyatsizliklardan qo'rqmay tajriba o'tkazishda o'zlarini qulay his etadigan ochiq va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish
Ta'limning xilma-xilligi:	O'quvchilarning ijodini rag'batlantirish uchun turli xil o'qitish usullaridan, jumladan, guruh faoliyati, loyihalar, o'quv o'yinlari va tajribaviy o'rganishdan foydalanish.
Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishni rag'batlantirish:	O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga va murakkab muammolarni innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga undash.
San'atning integratsiyasi:	Ijodiy fikrlash va innovatsiyalarni rag'batlantirishi mumkin bo'lgan musiqa, teatr, rassomchilik va ijodiy

¹ Педагогика: энциклопедия / тузувчилар: жамоа. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2015,50-bet

³ Педагогика: энциклопедия / тузувчилар: жамоа. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2015, 53-bet

⁴ Педагогика: энциклопедия / тузувчилар: жамоа. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2015, 53-bet

	yozish kabi san'at turlari bilan tanishish.
Faoliyatda erkinlikni berish:	O'quvchilarga ularni qiziqtirgan mavzularni tanlash va mustaqil loyihalar ustida ishlash uchun sharoit yaratish.

PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR:

Tabiiy qiziqishni rivojlantirish:	Ochiq savollar berib, hamda o'z-o'zini izlashga undash orqali o'quvchilarning tabiiy qiziqishini rag'batlantirish.
O'z-o'zini hamda ta'sirchanlik tuyg'usini rag'batlantirish:	Ijobiy fikr bildirish, yutuq va mag'lubiyatni tan olish hamda qobiliyatlarni ta'kidlash orqali o'z-o'zini samaradorlik tuyg'usini rivojlantirish.
Aqliy moslashuvchanlikni rivojlantirish:	Aqliy moslashuvchanlikni va qobiqdan tashqarida fikrlash qobiliyatlarini rag'batlantirish. Bunga metaforik fikrlash, boshqariladigan tasvirlar hamda ijodiy muammolarni hal qilish kabi usullardan foydalanish kiradi.
Muvaffaqiyatsizlikni bartaraf etishda qo'llab-quvvatlash:	O'quvchilarni muvaffaqiyatsizliklarini o'quv va ijodiy jarayonining tabiiy va muhim qismi sifatida ko'rishga o'rgatish, ularni muvaffaqiyatsizliklaridan saboq olishiga va sabr - toqat qilishiga undash.
Ichki motivatsiyani tarbiyalash:	O'quvchilarga shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan topshiriqlarni berish va ularni qiziqtiradigan mavzularini o'rganish imkoniyatini berish orqali ichki motivatsiyani rag'batlantirish.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik va psixologik xususiyatlarni hisobga oladigan kompleks yondashuvni talab qiladi. Qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish, ochiq va moslashuvchan fikrlashni rag'batlantirish, ichki motivatsiya va qiziqishni rivojlantirish bu jarayonning muhim elementlari hisoblanadi. Bu metod va strategiyalarni uyg'unlashtirib, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish va ularni innovatsion va o'ziga xos tarzda murakkab muammolarni hal qilishga tayyorlash mumkin.

Xulosa. Ushbu maqolani yozishdan ko'zlangan asosiy maqsad - o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy- nazariy asoslari, ijodkorlik tushunchasining mazmun mohiyati va ta'limdagi innovatsion jarayonlar tizimida o'qitish va tarbiyalashda ijodkorlikka nisbatan chuqur pedagogik- psixologik xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Vazifalari esa:

1. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalarning nazariya va amaliyotdagi holatini ko'rib, o'rganib, samaraga erishishga yordam beruvchi omillar hamda pedagogika va psixologiya shart-sharoitlarni aniqlash;
2. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalarining nazariy asoslari (mazmuni, tamoyillari, yondashuvlari, bosqichlari, andozasi, muammolar mohiyatini yorituvchi qarashlarni) ishlab chiqish;

3. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari jarayonining mohiyatini namoyon ettiruvchi andozani va o'quvchilar ijodiy qobiliyatining yanada rivojlanganlik darajasini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqish;
4. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy - metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda, o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi, bu borada quydagi yo'nalishlar bo'yicha tizimli faoliyat amalga oshirilishi zarur:

Birinchidan, bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'limiy o'zgarishlar o'quvchilarning ongliligini, ijodkorligini va faolligini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi zarur.

Ikkinchidan, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot davrida, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish zamon talablari asosida shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini amalga oshirish zarur. Uchinchidan, ijodiy qobiliyat, ayniqsa, har bir soha vakillarida hamda o'quvchilarning ta'lim va jamiyatda tutgan o'rnini belgilar ekan, ta'lim va jamiyat ham yuqori malakali ijodiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilarni tayyorlashdan manfaatdor bo'lishini ularga anglab yetishlari keark.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining " Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni- T.:2020-yil. 23-sentabr//O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. Mirziyoyev Sh.. "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot straregiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.
4. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIV TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
5. Ortiqov O. R. TALABALAR MA'NAVIY AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA "QOBUSNOMA" ASARIDAN FOYDALANISH //Conferencea. – 2023. – С. 1-5.
6. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIV TA'LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
7. Ortiqov O. R. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTALOGIYA VA KOMPENTLIKNING ROLI VA AHAMIYATI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 42-47.
8. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari. Psix. fan. dok. ...diss. T.:
9. Karimova V, Nishanova Z. Mustaqil ijodiy fikrlash va shaxsning hissiy, irodaviy va intellektual hislatlari orasidagi bog'lanish // J. Xalq ta'limi, 2001. №3-6.-B.-64-69.
10. Гревцева Г. Я. и др. Общая педагогика. – 2020.
11. Самиева Ш. Х., Усмонова Г. Х. Научные направления развития творческих и интеллектуальных способностей молодежи //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-38.

12. Педагогика: энциклопедия / тузувчилар: жамоа. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2015, 50-бет